

**MARKAZIY OSIYODA SUV RESURSLARINI BOSHQARISH  
MASALALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

**Qoraboyev Zohidjon Bahodir o'g'li,**

**Namangan davlat niversiteti, Tarix yo'nalishi talabasi**

**E mail: [Zohidjonqoraboyev782@gmail.com](mailto:Zohidjonqoraboyev782@gmail.com)**

**Tel :+99895 900 70 90**

**Annotatsiya:** Markaziy Osiyoda bevosita iqlim muammofiga bog'liq holda suv muammokeyingi besh, o'n yillarda dolzarb muammoga aylanmoqda. Bunga asosiy sabab qilib, yildan-yilga aholi sonining ortib borishi, suvdan noto'g'ri foydalanish oqibatida suv isrofgarchiligi haddan ziyod ortib ketayotgani, havo harorati keskin ko'tarilishi natijasida baland tog'lardagi millionlab yillardan beri uxlاب yotgan muzliklarning uyg'onishi va natijada erib daryo suvlariga qo'shilib ketishini ko'rsatib etish mumkin.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, suv resurslari, suv – dolzarb muammo, suv taqsimoti, omillar, muammo va yechimlar.

**Абстрактный:** В Центральной Азии, напрямую связанная с проблемой климата, водная проблема станет актуальной проблемой в ближайшие пять-девять лет. Основная причина этого – ежегодный рост населения, чрезмерная растрата воды из-за неправильного использования, а также пробуждение спящих в течение миллионов лет ледников в высоких горах в результате резкого повышения температуры воздуха, в результате чего они тают и присоединяются к речным водам.

**Ключевые слова:** Центральная Азия, вода – актуальная проблема, водораспределение, факторы, проблемы и пути решения.

**Abstract.** In Central Asia, the water problem is becoming an urgent problem in the next five to ten years, directly related to the climate problem. The main reasons for this are the increase in population from year to year, the excessive waste of water due to improper use, and the sudden increase in air temperature, which has led to the awakening of glaciers in the high mountains that have been dormant for millions of years, and as a result, they melt and merge with river waters.

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 03. March 2025

**Keywords:** water - an urgent problem, water distribution, factors, problems and solutions.

**Kirish.** Markaziy Osiyo dunyoning eng murakkab geosiyosiy hududlaridan biri bo'lib, suv resurslarini boshqarish bu mintaqadagi besh davlat (Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston) o'rtasidagi eng dolzARB masalalardan sanaladi. Ushbu muammo hududning barqaror rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

**Asosiy qism.** Bizga ma'lumki, butun dunyoda suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish muammosi asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu birinchi navbatda aholining o'sishi qishloq xo'jaligi va sanoatning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan toza chuchuk suvlarining yetishmasligi hisoblanadi. Ikkinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarning aholi yashash joylarida suv ta'minoti tizimining ta'minlanmaganligi va ishlab chiqarishda asosan tabiiy chuchuk suvlardan foydalanishdir. Kelajakda suvdan unumli foydalanish jarayonlarida ham bu omillar muhim hisoblanadi. Barcha xalq xo'jaligi tarmoqlarida qo'llaniladigan texnologiyalar yordamida suvdan maksimal foydalaniladi. Shuning uchun suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish masalalarini yechish maqsadida suv resurslaridan foydalanishning mukammal texnika va texnologiyalarini tatbiq etish zarur hisoblanadi, chunki, ular aholining suv iste'mol qilish solishtirma me'yorini kamaytirishga imkon beradi. Suvdan oqilona foydalanish va tejab ishlatish hozirgi vaqtarda juda muhim. Ayniqsa bizning mintaqada.

Mutaxassislar iqlim o'zgarishi tabiiy ofatlarning yangi turlari paydo bo'lishiga sharoit yaratishi bilan birga, mavjud tabiiy ofatlarning zarar yetkazish kuchini bir necha barobar oshirishi, hattoki, boshqarib bo'lmaydigan darajaga yetkazishi mumkinligini aytmoqda. Bevosita, suv muammosi iqlim bilan bog'liq bo'lgan global muammodir. Shu o'rinda shuni aytish kerak-ki, azon tuynugi yemirilishi natijasida, quyoshdan to'g'ridan to'g'ri tushayotgan ultrabinafsha nurlar bir necha yuz ming yillardan buyon mavjud bo'lgan muzliklarning tez fursatda erib ketishi va bir qator viruslarning tarqalishiga zamin yaratmoqda. Yuqoridagi ma'lumotlarga bog'liq holatda, 2050-yilgacha dunyoning oltita mintaqasida yashayotgan 216 million nafar inson o'zları yashayotgan makонni tark etib, boshqa hududlarga ko'chishga majbur bo'ladi. Bu mintaqalar orasida Markaziy Osiyo hamda unda yashayotgan 5 milliondan ortiq aholining borligi ushbu muammoning mintaqasi davlatlari uchun juda dolzARB ekanligini

## “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

**Volume 02. Issue 03. March 2025**

isbotlaydi. Aholining o‘z hududini tark etib boshqa hududlarga ko‘chishi bevosita suv bilan bog’liq masalaga borib taqaladi.

Suv resurslarining notekis taqsimlanishi mintaqadagi davlatlar o‘rtasida ziddiyatlarga sabab bo‘lib kelmoqda. Masalan, Qirg‘iziston va Tojikiston gidroenergetik loyihalarni rivojlantirish uchun suv omborlarida suv to‘playdi, lekin bu O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston hududlarida qurg‘oqchilikka olib kelishi mumkin.

Markaziy Osiyoda suv resurslari asosan ikkita yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryodan iborat bo‘lib, ularning yillik hajmi taxminan 116 kub kilometrni tashkil etadi. Sirdaryo havzasidan suv olish limiti 4,2 milliard kub metr bo‘lib, davlatlar o‘rtasida quyidagicha taqsimlangan: O‘zbekiston: 3,3 milliard kub metr, Qozog‘iston: 452 million kub metr, Tojikiston: 365 million kub metr, Qirg‘iziston: 47 million kub metr. Qayd etilishicha, 2022-yil vegetatsiya davrida Amudaryo havzasidagi suv miqdori ancha noaniq bo‘lgan: agar aprel-may oylarida u me’yoriy chegarada bo‘lsa, iyun oyidan boshlab 85-65 foizgacha kamaygan va me’yordan past bo‘lgan. Yuzaga kelgan vaziyatda foydalanilgan suv miqdori umumiy limitning 79,1 foizini tashkil qilgan. Jumladan, Tojikistonda 95,3 foiz, Turkmanistonda 83,3 foiz, O‘zbekistonda 68,7 foiz suv iste’mol qilingan. 2022-yilning 1-apreldan 30-sentabrgacha Sirdaryo havzasidan olinadigan suv limiti 11,8 milliard kub metrni tashkil etgan holda 10,1 milliard kub metr suv olingan [3. – B. 1.].

Qirg‘iziston va Tojikiston – daryolar suvining asosiy manbalari bo‘lib, gidroelektr stansiyalar orqali energiya ishlab chiqaradi. Ma’lumki, Tojikistonda mintaqadagi eng yirik muzliklar mavjud. Mamlakat hududining 6 foizini muzliklar tashkil etgan va ular yuz yillar davomida mintaqqa daryolarini suv bilan ta’minlab kelgan. Ammo Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon BMT televide niyesi muxbiri bilan suhbati paytida aytishicha, mamlakatdagi 14 ming muzlikdan mingdan ortig‘i yoki o‘n foizga yaqini oxirgi 20 yil davomida butunlay erib bitgan va bu jarayon muntazam davom etmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, oxirgi 30-40 yil davomida Fedchenko muzligi 6-7 foizga qisqargan.

Davlatlararo kelishmovchiliklar – suvdan foydalanish bo‘yicha umumiy kelishuvlarning yetarli emasligi muammo ko‘lamini kengaytirmoqda holos. Hozirgi kunda Orol dengizining qurishi dunyoning eng yirik ekologik fojialaridan biri bo‘lib turibdi. Sahroga aylangan dengiz tubidagi tuz, qum-chang va zaharli o‘g‘itlar insonlar

## “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

**Volume 02. Issue 03. March 2025**

hayoti va tabiatni xavf ostiga qo‘yayotgani hech kimga sir emas. Iqlim o‘zgarishi ta’siri – mintaqada harorat oshib borayotgani sababli suv zaxiralari kamaymoqda.

Yechim sifatida, suv taqsimoti bo‘yicha mintaqaviy kelishuvni qayta ko‘rib chiqish, suvdan foydalanish bo‘yicha xalqaro tajribaga asoslangan aniq mexanizmlar yaratish, suv bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida barqaror hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, suv tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish, tomchilatib sug‘orish va zamonaviy irrigatsiya tizimlarini keng joriy etish, davlatlararo suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish, suv uchun kompensatsiya tizimini yo‘lga qo‘yish kabi masalala kun tartibidan o‘rin olishi lozim [1. – B. 46.].

O‘zbekiston tashabbusi bilan 2018-yil 22-iyun’ kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minalash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasi qabul qilindi. BMTga a’zo barcha davlatlar bir ovozdan qo‘llab-quvvatlagan ushbu hujjatda Markaziy Osiyoda suv va energiya manbalaridan unumli va kompleks foydalanish, Orol dengizi qurishi bilan bog‘liq ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoratlarni yumshatish yo‘nalishlarida ikki tomonlama va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish muhimligi qayd etilgan.

Mamlakatimizda suv tanqisligi vujudga kelishining oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2020-yil yozgi sug‘orish mavsumida ekin maydonlarini suv bilan ishonchli ta’minalash va suv tanqisligining oldini olish bo‘yicha shoshilinch chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Hujjatda respublikamiz hududlarida suv resurslarining yetarli darajada ta’minalishi va oqilona taqsimlanishi belgilangan.

Tog‘li davlatlarga elektr energiyasi va iqtisodiy imtiyozlar berish evaziga suv taqsimotida muvozanatni saqlash, birinchi navbatda ishlatiladigan iflos suvlarni tozalamay daryo va ko‘llarga oqizilishidan suv manbalarining ifloslanishi natijasida XX asr oxiriga kelib insoniyat oldida suv taqchilligi muammozi paydo bo‘ldi. BMT tomonidan keljakda insoniyatni chuchuk suv bilan ta’minalash muammolariga bag‘ishlangan suv resurslari bo‘yicha 3-jahon forumi o‘tkazildi (2003, Yaponiya, Kioto), 2003-yil “Xalqaro chuchuk suv yili” deb e’lon qilindi.

Markaziy Osiyo davlatlarining suv olish limitlari o‘tgan yilning noyabr oyida Ashxobodda Davlatlararo suv xo‘jaligi muvofiqlashtiruvchi komissiyasi (DSMK) yig‘ilishida tasdiqlangan edi. DSMK navbatdagi yig‘ilishi 2023-yil aprel oyida

# **“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 03. March 2025**

Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tdi, unda yangi qishloq xo‘jaligi mavsumining vegetatsiya davrida suv ta’minoti masalalari qo‘sishmcha ravishda muhokama qilindi.

**Xulosa.** Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish mumkin. Suv resurslarini boshqarish jamiyat va tabiatning suvga bo‘lgan ehtiyojlarini kerakli sifat va miqdorda barcha vaqt davrlarida – operativ, ko‘p yillik va istiqboldagi ehtiyojlarni qondirishni ta’minlashi zarur.

## **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Salohiddinov A. T., Ashirova O. A. Suv resurslarini havzaviy rejalashtirish va boshqarish. – Toshkent, 2020.
2. <https://www.amerikaovozi.com/a/7180446.html>
3. <https://kun.uz/news/2023/01/10/markaziy-osiyo-davlatlari-2023-yil-uchun-suvni-taqsimlab-oldi>.



# **Research Science and Innovation House**